

VII. ISTE'MOL BOZORI



2022 yilning yanvar-dekabrida chakana savdo tovar aylanmasi 11 351,9 mlrd. so‘mni yoki 2021 yilning shu davriga nisbatan 110,7 foizni tashkil qildi.


Yirik korxonalarning chakana savdo tovar aylanmasi 1 562,6 mlrd. so‘mni va umumiy chakana savdo tovar aylanmasidagi ulushi 13,8 foizni tashkil qildi.

Kichik korxona va mikrofirmalarning chakana savdo tovar aylanmasi 111,0 foizni tashkil etib, 9 789,3 mlrd. so‘mga yetdi, umumiy chakana savdo tovar aylanmasidagi ulushi esa 86,2 foizni tashkil qildi.

Umumiyl tovar aylanmasi hajmida 5 805,7 mlrd. so‘m yakka tartibdagи tadbirkorlar hisobiga to‘g‘ri keldi va o‘sish sur’ati 2021 yilning shu davriga nisbatan 112,2 foizga yetdi. Jami chakana savdo tovar aylanmasi hajmida ushbu sektor ulushi 51,1 foizga teng bo‘ldi.



**Chakana savdo tovar aylanmasi tarkibi, % da
(2022 yil yanvar-dekabr)**



2022 yilning yanvar-dekabrida chakana savdo tovar aylanmasi tarkibi davlat va nodavlat shakllari bo‘yicha quyidagicha ifodalanadi.


Davlat mulki 1,1 mlrd. so‘mni yoki 0,01 foizni va umumiy chakana savdo tovar aylanmasida tashkil qildi.

Nodavlat mulki esa 11 350,8 mlrd. so‘mni yoki 99,99 foizni va umumiy chakana savdo tovar aylanmasida tashkil qildi.

Chakana savdo tovar aylanmasi umumiy hajmining eng katta ulushi Jizzax shahri hisobiga to‘g‘ri keldi va 21,7 foizni tashkil etdi, Zomin tumani 11,8 foizni, Sharof Rashidov tumani 12,7 foizni tashkil etgan bo‘lsa, Yangiobod tumani 0,9 foiz, Zafarobod tumani 1,5 foiz va Arnasoy tumani 1,9 foiz ulush bilan eng past ko‘rsatkichni qayd etdi.



Hududlarning jami chakana tovar aylanmasidagi ulushi



2022 yilning yanvar-dekabr oylarida chakana savdo tovar aylanmasi tarkibi

	<i>Chakana savdo hajmi, mlrd. so'm</i>	<i>2021 yil yanvar- dekabriga nisbatan foiz hisobida</i>	<i>Umumiy hajmga nisbatan foiz hisobida</i>
--	--	--	---

Jami	11 351,9	110,7	100,0
<i>shu jumladan:</i>			
yirik korxonalar	1 562,6	108,8	13,8
kichik tadbirkorlik	3 983,6	109,3	35,1
Yakka tartibdagagi tadbirkorlek	3 974,8	111,7	35,0
Uyushmagan savdo	1 830,9	113,3	16,1



**2022 yilning yanvar-dekabr oylarida viloyatning
chakana tovar aylanmasi**
(umumiy ovqatlanish tashkilotlarini qo'shgan holda)


	<i>Jami</i>		<i>Aholi jon boshiga</i>	
	<i>Hajmi, mlrd. so'm</i>	<i>2021 yil yanvar- dekabriga nisbatan foiz hisobida</i>	<i>ming so'm</i>	<i>2021 yil yanvar- dekabriga nisbatan foiz hisobida</i>
Jizzax viloyati	11351,9	110,7	7 777,9	108,2
<i>shahar:</i>				
Jizzax	2 468,7	110,8	13 041,0	108,0
<i>tumanlar:</i>				
Arnasoy	214,3	102,2	4 492,5	100,5
Baxmal	2 863,7	114,6	17 366,3	112,1
G'allaorol	957,0	110,9	5 787,2	108,5
Sharof Rashidov	1 445,2	109,1	6 184,2	106,2
Do'stlik	375,7	108,9	5 500,3	106,9
Zomin	1 342,9	110,0	7 749,3	107,4
Zarbdor	342,5	104,2	3 742,7	101,7
Zafarobod	172,3	106,7	3 307,8	104,7
Mirzacho'l	283,9	110,6	5 257,0	108,7
Paxtakor	419,2	108,6	5 347,0	106,1
Forish	365,6	108,2	3 804,5	106,5
Yangiobod	100,9	107,9	3 455,4	106,4

Viloyatda chakana tovar aylanmasida aholi jon boshiga o'sish surati yuqori hududlar Baxmal (112,1 %), Mirzacho'l (108,7 %) va Do'stlik (106,9 %) tumanlariga

to‘g’ri keladigan.




**2022 yil yanvar-dekabr oylarida, chakana savdo
tovar aylanmasining o‘sish sur’atlari**
(ovqatlanish tashkilotlarini qo’shgan holda, % da)



Viloyatning aksariyat hududlarida o’tgan yilning shu davriga nisbatan o‘sish sur’atlari kuzatildi. Xususan, yuqori o‘sish sur’atlari Baxmal tumani (114,6 %), Sharof Rashidov tumani (109,1 %), Zomin tumanida (110,0 %), Forish tumanida (108,2 %), Jizzax shahri (110,8 %), Paxtakor tumanida (108,6 %), nisbatan yuqori bo’limgan o‘sish sur’atlari Arnasoy tumanida (102,2 %) va Do’stlik tumanida (100,3 %) kuzatildi.




2022 yil yanvar-dekabr oylarida hududlar bo'yicha kichik tadbirkorlik (biznes)da chakana tovar aylanmasi hajmi va o'sish sur'ati, % da



Hududlar bo'yicha olib qaralganida, kichik tadbirkorlikning chakana tovar aylanmasi hajmi nisbatan yuqori bo'lgan hududlar Jizzax shahri (2 230,9 mlrd. so'm), Sharof Rashidov (1 435,8 mlrd. so'm), Zomin (1 118,3 mlrd. so'm), G'allaorol (931,7 mlrd. so'm) va Baxmal (1 721,3 mlrd. so'm) tumanlari hisoblanadi.




**Tumanlarning umumiyligi ovqatlanish korxonalarini tovar aylanmasi mlrd. so'm, o'sish sur'ati, % da
(2022 yil yanvar-dekabr)**



Umumi ovqatlanish korxonalari savdo aylanmasi umumi hajmida yuqori ko'rsatkich Jizzax shahrida (114,4 mlrd. so'm), Sharof Rashidov (44,9 mlrd. so'm), Zomin (17,1 mlrd. so'm) hamda G'allaorol (14,2 mlrd. so'm) tumanlarida, eng past ko'rsatkich esa Yangiobod (2,4 mlrd. so'm), Arnasoy (1,5 mlrd. so'm) va Zafarobod (4,0 mlrd. so'm) tumanlarida qayd etildi.



Umumi ovqatlanish korxonalarining tovar aylanmasi (mln. so'm) (2022 yil yanvar-dekabr)



2022 yilning yanvar-dekabr oylarida viloyatning ulgurji tovar aylanmasi

2022 yilning yanvar-dekabr oylarida ulgurji savdo aylanmasi 2 801,6 mlrd. so'mni yoki 2021 yilning shu davriga nisbatan 109,2 foizni tashkil etdi.

Yirik korxonalarning ulgurji savdo aylanmasi 479,4 mlrd. so'mni yoki o'tgan yilning shu davriga nisbatan 97,5 foizni tashkil qildi.

Kichik korxona va mikrofirmalarning ulgurji savdo aylanmasi 111,9 foizni tashkil etib, 2 322,5 mlrd. so'mga yetdi hamda umumi ulgurji savdo aylanmasidagi ulushi 82,9 foizni tashkil qildi.



**Hududlar kesimida ulgurji tovar aylanmasi
(2022 yilning yanvar-dekabr)**

*Hajmi,
(mlrd. so‘m)*

*Jamiga
nisbatan,
foizda*

*2021 yil
yanvar-dekabriga
nisbatan foizda*

Jizzax viloyati

2 801,6

100,0

109,2

shahar:

Jizzax

1 560,2

55,7

99,4

tumanlar:

Arnasoy

7,4

0,3

110,4

Baxmal

278,5

9,9

95,0

G‘allaorol

85,9

3,1

86,7

Sharof Rashidov

174,2

6,2

93,3

Do‘slik

201,5

7,2

31,0

Zomin

245,5

8,8

129,4

Zarbdor

39,9

1,4

41,0

Zafarobod

20,5

0,8

104,7

Mirzacho‘l

42,8

1,5

81,0

Paxtakor

90,9

3,2

45,2

Forish

33,6

1,2

101,0


Yangiobod

20,7

0,7

97,1

Hududlar kesimida ulgurji tovar aylanmasi o‘tgan yilning mos davriga nisbatan o‘sish surati yuqori bo‘lgan Paxtakor (45,2 %), Zarbdor (41,0 %) va Do‘slik (31,0 %) tumanlariga to‘g‘i keladi.



- Mirzacho'l
- Zarbdor
- Zafaraobod
- G'allaorol
- Do'stlik
- Arnasoy
- Yangiobod
- Forish
- Sharof Rashidov
- Zomin
- Paxtakor
- Jizzax shahri
- Baxmal

Ulgurji savdo aylanmasi hajmi o'tgan yilga nisbatan 109,2 foizni tashkil etdi, kichik korxona va mikrofirmalarining ulgurji savdo tovar aylanmasi 82,9 foizni, hajmi esa 2 322,5 mlrd. so'mni tashkil etdi.

Xususan, ulgurji savdo tovar aylanmasi hajmida katta ulushga ega bo'lgan hudud Jizzax shahri (55,7 %) hisoblanadi. Shuningdek, Sharof Rashidov (6,2 %) va Zomin (8,8 %) tumanlari nisbatan yuqori ulushga, Yangiobod (0,7 %), Arnasoy (0,3 %), Mirzacho'l (1,5 %) hamda Zafarabod (0,7 %) tumanlari esa eng past ulushga ega.

Shundan yuqori xajimlarga ega bo'lgan Jizzax shahrida 1560,2 mlrd. so'mni, qolganlari Baxmal 278,5 mlrd. so'mni, Zomin 245,5 mlrd. so'mni, Do'stlik 201,5 mlrd. so'mni hamda Sharof Rashidov 174,2 mlrd. so'mni tumanlarida tashkil qilgan.